

**J.Sh.Hasanova**

*OXU magistranti*

*Ilmiy rahbar dotsent O.R.Avezov*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘smirlar guruhi uchun xarakterli bo‘lgan o‘zini o‘zi psixologik muhofaza qilish hamda yo‘nalganlik darajasi doirasidagi tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligi, o‘smirlilik davridagi shaxs yo‘nalganligi uchun muhim bo‘lgan u yoki bu jihatni nazariy-ilmiy tahlillar borasida so‘z yuritiladi.

**Tayanch tushunchalar:** o‘quv faoliyati, o‘smirlar guruhi, psixologik muhofaza qilish, yo‘nalganlik darajasi, shaxs yo‘nalganligi, o‘smirlarning ziddiyatli vaziyatlardagi yo‘nalganlik darajasi, o‘smirlilik egotsentrizmi.

**Abstract:** In this article, there is a growing need for research on self-psychological protection and the level of orientation, which is characteristic of the adolescent group, which is important for the orientation of the person in adolescence. theoretical-scientific analyzes of this or that aspect are discussed.

**Basic concepts:** educational activity, adolescent group, psychological protection, orientation level, personality orientation, orientation level of adolescents in conflict situations, adolescent egocentrism.

Bugungi kunda talaygina o‘smirlar o‘quv faoliyatida juda ko‘plab muvaffaqiyatsizliklarga uchrayotganliklarini kuyunib gapirmoqdalar, shuningdek, kattalar tomonidan ularga bildirilayotgan muomala jarayonidan qoniqmay kelayotganliklari va buning oqibatida qattiq asabiylashgan holda faoliyat yuritayotganliklarini qayta-qayta ta’kidlaydilar. Bularning barchasi, o‘smirlar guruhi uchun xarakterli bo‘lgan o‘zini o‘zi psixologik muhofaza qilish hamda yo‘nalganlik darajasi doirasidagi tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

Talim-tarbiya sohasiga shunday mutaxassislar kerakki, ular har taraflama yetuk bo‘lishi lozim. Chunki ular tarbiya qilgan bolalar erkin fikrlaydigan, o‘zkasbini o‘zi erkin tanlay oladigan, hayotda o‘z o‘rnini o‘zi topib yashaydigan bolalar yetishib chiqsagina, biz talim samaradorligini tasirini ko‘rishimiz mumkin. Ta’lim samaradorligini oshirish uchun hamma shart-sharoitlarni yaratish o‘quvchi bilan o‘qituvchi va o‘quvchi bilan o‘quvchi, o‘quvchi va ota-onalar munosabatini ham yaxshilash, ya’ni har qanday noxush holatni oldini olish dolzarb muammolardan biri hisoblanib, har bir talim sohasida ishlaydigan pedagog va psixologlarning vazifasidir. Tashqaridan qaraganda hal etilgandek tuyulgan ushbu muammo aslida surunkali ichki nizoga aylangan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham o‘smirlilik davridagi xulq og‘ishlarini to‘liq bartaraf etilishida o‘qituvchi va psixologlarning barchasi psixologik bilimlarga ega bo‘lishi shart

hisoblanadi.

Barcha tadqiqotchilar ham psixologiyaning metodologik tamoyillariga amal qilgan holda o'smirlilik davridagi shaxs yo'nalganligi uchun muhim bo'lgan u yoki bu jihatni nazariy-ilmiy tarzda asoslab bergenlar. Bular ichida o'smirlarning yo'nalganlik darajasi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni Andreeva G.M., Zabrodin YU.M., Karnegi D., Karimova V.M., Parigin B.D., Snigireva T.V., Filippov A.V., YAdov V.A., G'oziev E.G.; Grimak L.P., Lomov B.F., Leytes N.S., Golubeva E.A, Petrovskiy V.A., Rubinshteyn S.L.; ijtimoiy ustanovka bilan bog'liq tadqiqotlarni Asmolov A.G., Nadirashvili Sh.A., Uznadze D.N., Shixirev P.N., Allport G.W., shaxsga munosabat tizimi asosida yondashuv istiqbollariga bag'ishlangan tadqiqotlarni Zdravomislov A.G., Kuzmin E.S., Lazurskiy A.F., Muksinov R.I., Stolin V.V, Bogoslavskiy V.V.; ta'lim muassasalarida psixologik xizmat modelini tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarni Breynshteyn M.S., Dubrovina I.V., Kala U.V., Rudik V.V., Leymets X.O., Mattes G.O., Pratuivich Y.M., alohida qayd etish mumkin. Bu esa o'smirlarning ziddiyatlari vaziyatlardagi yo'nalganlik darajasi jarayonining bugungi kundagi ayrim dolzarb jihatlari, muammolari va uning yechimlari haqida o'ylashga, fikr mulohaza yuritishga va o'z tadqiqotimiz vazifalarini belgilab olishga nazariy - ilmiy va metodologik manba sifatida yordam beradi, deb o'ylaymiz. Ayniqsa, olimlar tomonidan bugungi kunda ijtimoiy- psixologik hodisalarga inson taraqqiyoti va qadriyatlarasi asosida yondoshuv muammosining (M.G.Andreeva, Y.M.Zabrodin, D.Karnegi, E.G'oziev, V.M.Karimova, I.S.Kon, C.I.Koralev, B.D.Parigin, E.V.Shoroxova) va shaxs va faoliyat uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiluvchi psixologik yondashuvni ta'minlash muammosining L.S.Vigotskiy, M.G.Davletshin, U.Djeyms,A.G.Kovalev, A.N.Leontev, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, V.A.Tokareva, E.Fromm, Kodirov B.R.) o'rta ga tashlanishi o'smirlarning ziddiyatlari vaziyatlardagi xulq-atvori metodologiyasi haqida jiddiyroq o'ylashni va mulohaza yuritishni taqozo etmoqda.

O'smir jismoniy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil jinsiy balog'at bo'lib, u nafaqat psixik, balki ichki organlar faoliyatini ham belgilaydi. Shu bilan bog'liq holda ongli (ko'pincha ongsiz) jinsiy mayllar, shu bilan bog'lik noxush his- kechinmalar, fikrlar paydo bo'ladiki, bola ularning asl sababini ham tushunib yetolmaydi. Psixik taraqqiyotning o'ziga xosligi shundaki, u muttasil rivojlanib boradi, lekin bu rivojlanish ko'plab qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi. Butaraqqiyot o'quv jarayonida kechgani uchun ham to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati bola psixikaning muozanati va uning turli fikr-o'ylardan chalg'ishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, diqqat, xotira, tafakkur jarayonlari rivojlanadi. Ayni shu davrda bola mustaqil ravishda fikrlashga intila boradi. Chunki bu davrda u ko'proq o'z fikr

- o'ylari dunyosida mushohada qilish, olam va uning sirlarini bilishga, nazariy bilimlarni ko'paytirishga intiladi. Buning sababi - yana o'sha kattalikka o'tish bo'lib, bolada o'ziga xos "kattalik" hissi paydo bo'lib, bu narsa uning gapirishi va fikrlashlarida

ham ifodalanadi. Shuning uchun ham maktabda berilgan mustaqillik va to‘g‘ri tashkil etilgan o‘qish sharoitlari, samimiylit muhiti unda mustaqil fikrlashiga katta imkoniyatlar ochishi va undagi ijodiy tafakkurni rivojlantirishi mumkin. Shunga bog‘liq tarzda o‘smirning o‘z falsafasi, o‘z siyosati, baxt va

muhabbat formulasi yaratiladi. Mantiqan fikrlashga o‘rganishi esa unga o‘zicha aqliy operatsiyalarni amalga oshirish, tushunchalar va formulalar dunyosida harakat qilishga majbur qiladi. Bu o‘ziga xos o‘smirlilik egotsentrizmning shakllanishiga - butun olam va uning qonuniyatlari unga bo‘ysunishi kerakday fikrning paydo bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun ham aynan o‘smirlik paytida bolalar o‘z ota- onalari bilan hadeb tortishaveradilar. Aniq bir to‘xtamga kelolmasa ham tortishish biror fikrni izhor qilish ehtiyojining o‘zi unga juda yoqadi.

Aksariyat o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Bu o‘zgarishlar fiziologik hamda psixologik o‘zgarishlardir. Fiziologik o‘zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog‘liq ravishda tanadagi barcha a’zolarning mukammal rivojlanishi va o‘sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir. Organizmdagi o‘zgarishlar bevosita o‘smir endokrin sistemasining o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir. Bu davrda ichki sekretsiya bezlaridan biri gipofez bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to‘qimalarining o‘sishi va muhim ichki sekretsiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak o‘sishi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo‘y o‘sishi tezlashadi, jinsiy balog‘atga etish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo‘lishi) amalga oshadi.

O‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o‘zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o‘rtoqlari va o‘qituvchilarigako‘rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo‘li bilan ham osongina ko‘rish mumkin. O‘smirlik yoshiga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni o‘rgana turib, o‘smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolatga erishish yo‘llarini va unga ta’sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta’sirini tushunish mumkin. Bu davrda o‘smir baxtli bolalik bilan xayrashgan, lekin kattalar hayotida hali o‘z o‘rnini topa olmagan holatda bo‘ladi, o‘smirlik davri «O‘tish davri», «Krizis davri»,

«Qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan xarakterlanadi.

Chunki, bu yoshdagi o‘smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o‘z o‘rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O‘z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni «psixik rivojlanishdagi krizis» deb nomlagan. O‘smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo‘lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo‘lmaydi. Jinsiy yetilish o‘smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta’sir ko‘rsatib, bu ta’sir bevosita emas, balki ko‘proq bilvositadir. O‘smirlik davriga ko‘pincha so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, tajanglik, o‘z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi xususiyatlar xos.

Kattalarga nisbatan yovuz munosabatning paydo bo‘lishi, noxush xulq-atvor alomatlari jinsiy etilish tufayli paydo bo‘ladigan belgilar bo‘lmay, balki ular bilvosita’sir ko‘rsatadigan, o‘smir yashaydigan ijtimoiy shar-sharoitlar vositasi orqali: uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqeい tufayli, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o‘zgartirish yo‘li bilan o‘smirlarning xulq-atvoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatish mumkin. O‘smirlar nihoyatda taqlidchan bo‘lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo‘ladi. Ular tashqi ta’sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchgan bo‘ladilar. Shuningdek, ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham xosdir. Tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik o‘smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo‘ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning, shuningdek, ustozlarning to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatishlariga qaramay, o‘z fikrlarini o‘tkazishga harakat qiladilar. Juda ko‘p o‘smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qoladilar. Bunday holatlarga tushgan o‘smir juda tashvishga tushadi va unda krizis holati yuzaga keladi. Bu krizis o‘smirning ma’naviy o‘sishi, shuningdek psixikasidagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqeい o‘zgaradi, o‘zining yaqinlari, do‘stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o‘zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko‘pgina o‘smirlarda o‘zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o‘zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga to‘g‘ri kelmayotganligi o‘smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o‘smirda o‘zi haqida salbiy fikr va qo‘rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba’zi o‘smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek ota- onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo‘ladi va o‘smirlilik davri krizisi deyiladi.

O‘smirlilik davrida yetakchi faoliyat - bu o‘qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir. O‘smirlilik davri muloqotining asosiy vazifasi - bu do‘stlik, o‘rtoqlikdagi elementar normalarni aniqlash va egallahshdir. O‘smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to‘la o‘rtoqlik kodeksiga bo‘ysunadi.

O‘smirlilik davridagi qiyinchiliklarning oldini olishning eng ishonchli va foydaliyo‘li - bu uning biror narsaga turg‘un qiziqishiga erishish, faoliyat motivlarini mazmunliroq qilishdir. Masalan, shu davrda texnikaga qiziqib qolgan bola qiziqishini qondirish shart - sharoitining yaratilishi, bekor qolmasligiga erishish, har bir harakat ini rag‘batlantirish, unga bir ish qo‘lidan keladigan odamday munosabatda bo‘lish katta pedagogik ahamiyatga ega. Uning qiziqishlarini bila turib, oldiga yangidan yangi maqsadlar qo‘yish - bola shaxsining rivojiga asosdir. Shundagina uning o‘z “Men”i to‘g‘risidagi tasavvurlari ijobiy, o‘z - o‘ziga bahosi obyektiv va adolatli bo‘ladi, o‘zining nimalarga qodirligi va kim ekanligi haqida yaxshi fikrlar paydo bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘smirlarda o‘zini anglashning muhim xususiyatlaridan biri o‘zini bilishga bo‘lgan ehtiyoj bilan shaxsning namoyon bo‘lishini

yeterli darajada tahlil qilaolmasligi, o‘zi haqida yeterli darajada obyektiv bilimlarga ega emasligi o‘rtasidagi qarama-qarshilikdir. Mana shu asosda ba’zan o‘smirlardagi tirishqoqlik darjasini bilan uning kollektivdagi haqiqiy mavqeい o‘rtasida, uning o‘z-o‘ziga nisbatan, o‘z shaxsining sifatlariga nisbatan bo‘lgan munosabati bilan unga hamda uning shaxsining sifatlariga nisbatan kattalarning va tengdoshlarining munosabatlari o‘rtasida ixtilof yuzaga keladi. I.S..Kon adolatli ravishda ta’kidlaganidek, o‘smirlarda ikkita bir-biriga qarama-qarshi, ammo har ikkisi ham ayni bir vaqtida salbiy bo‘lgan kechinmalarni, yani boshqalardan ustunlik va boshqalardan kamlik hissini tug‘dirmaslik uchun o‘smir shaxsiga to‘g‘ri baho berish muhimdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Avezov O.R. Psyholigical relations between family members. Ssientifis Journal Impact Factor. VOLUME 2 | ISSUE 2. ISSN 2181-1784. SJIF 2022: 5.947 February 2022 [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz). P-945-949
2. Avezov O.R. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies AMERISAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. ISSN: 2690-9626 Vol.3, No 1, 2022. <https://www.grnjournals.us/index.php/AJSRH/article/view/714>
3. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik, "Durdona" nashriyoti, 2021 yil. 243 bet.
4. Avezov O.R. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. Darslik, " Buxoro viloyati bosmaxonasi" nashriyoti, 2019 yil. 495 bet.
5. Avezov O.R., SH.R. Barotov, L.YA. Olimov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. "O‘zbekiston faylasuflari jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019 yil. 492 bet.
6. Avezov O.R. L.YA. Olimov, A.M. Nazarov. Shaxs psixologiyasi. Darslik. "Durdona" nashriyoti Buxoro. 2019 yil. 340 bet.
7. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko‘rsatish amaliyoti. Psixologiya. № 1 son (2021) Buxoro. 2021. B. 21-27.
8. Аvezov О.Р. Экстремальная психологическая помощь в экстремальных ситуациях. Вестник интегративной психологии. № 21. Ярославл. 2020. С. 34-37
9. Бадмаев С.А. Психологическая коррекция отклоняющегося поведения школьников. Издание 4-е. - М., 1999. - 96 с.
10. Бандура А. Теория социального научения. Монография - Санкт - Петербург: Евразия, 2000. - 320 с.
11. Бурменская Г.В., Карабанова О.А, Лидере А.Г. Возрастно-психологическое консультирование. -М., 1990. - 134 с.